



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA TARIF VA NOTARIF CHORALAR

*Bojxona rasmiylashtiruv markazi
boshlig'i, podpolkovnik
Rizayev Mirmahmud Xotamjanovich
e-mail: rizayev.mirmahmud@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda qo'llanilayotgan tarif va notarif choralar tahlil qilinadi, mavjud muammolar va takliflar yoritiladi. Shu orqali milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda samarali tartibga solish vositalari yoritilishi ko'zda tutiladi.

Kalit so'zlar: Sanitariya, fitosanitariya, muvofiqlik sertifikat, tarif, notarif, texnik to'siqlar, standardlashtirish, import, eksport, texnik reglamentlar, bojxona ekspertizasi, oziq ovqat mahsulotlari, bojxona bojlari, , eksport nazorati.

Аннотация. В данной статье анализируются применяемые в Республике Узбекистан тарифные и нетарифные меры по обеспечению безопасности пищевых продуктов, освещаются существующие проблемы и предложения. Целью является освещение эффективных механизмов регулирования в обеспечении национальной продовольственной безопасности.

Ключевые слова: Санитария, Фитосанитария, Сертификат соответствия, Тариф, Нетарифный, Технические барьеры, Стандартизация, Импорт, Экспорт, Технические регламенты, Таможенная экспертиза, Продукты питания, Таможенные пошлины, Экспортный контроль.

Annotation. This article analyzes the tariff and non-tariff measures applied in the Republic of Uzbekistan to ensure food safety, highlighting existing problems and proposals. The aim is to present effective regulatory tools for ensuring national food security.

Keywords: Sanitation, phytosanitary, certificate of conformity, tariff, non-tariff, technical barriers, standardization, import, export, technical regulations, customs expertise, food products, customs duties, export control.

Oziq-ovqat mahsulotlari inson salomatligi va hayot sifatining asosi hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat ichki iste'molchilar salomatligini himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy xavfsizlikka erishishda ham muhim strategik vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barcha davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi — bu aholini, sog'liq uchun xavf tug'dirmaydigan, sifatli, toza va iste'molga yaroqli oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy ravishda ta'minlashni anglatadi. Ushbu tushuncha nafaqat oziq-ovqat mavjudligi, balki uning sifati, yetkazib berish zanjiri va iste'molchilarning unga erishish imkoniyati bilan ham bevosita bog'liqdir. Bu borada xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlatlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ikki asosiy yo'l — **tarif** (bojxona bojlari) va **notarif choralar** (sanitariya, fitosanitariya, texnik reglamentlar va boshqa me'yoriy talablar) orqali o'z ichki bozorini tartibga soladi. Ushbu tushuncha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) qoshidagi **FAO** (Food and Agriculture Organization) va **Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti** (WHO) tomonidan keng qo'llaniladi. Xalqaro tajribada oziq-ovqat xavfsizligi "to'rtta ustun" orqali ifodalanadi:

Mavjudlik (availability) — bozorda yetarli hajmda oziq-ovqat bo'lishi;

1. **Erishish imkoniyati (access)** — aholining oziq-ovqat mahsulotlariga iqtisodiy va jismoniy jihatdan erkin erishish imkoniyati;



2. **Foydalanish (utilization)** – oziq-ovqatning iste'molga yaroqliligi, biologik qiymati va xavfsizligi;

3. **Barqarorlik (stability)** – oziq-ovqat ta'minotining uzoq muddatda kafolatlanganligi.

Oziq-ovqat xavfsizligining nazariy asoslarini aniqlashda **Codex Alimentarius** kodeksi muhim o'rin tutadi. Ushbu kodeks FAO va WHO tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan xalqaro sanitariya, gigiyena va xavfsizlik standartlarini belgilaydi. U jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari savdosi uchun yagona mezon bo'lib xizmat qiladi va ko'plab mamlakatlarning ichki qonunchiligiga integratsiyalashgan.

Milliy darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasida ushbu sohani tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat:

- "Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun;
- "Veterinariya to'g'risida"gi Qonun;
- "Fitosanitariya nazorati to'g'risida"gi Qonun;
- Vazirlar Mahkamasining oziq-ovqat xavfsizligiga oid qarorlari va reglamentlari.

Mazkur qonunchilik normalari orqali davlat import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qat'iy talablar qo'yadi. Ayniqsa, bojxona chegaralarida veterinariya-sanitariya, fitosanitariya va radiologik tekshiruvlar orqali mahsulotlar sifati nazorat qilinadi. Bu esa fuqarolarning sog'lig'i va ichki bozordagi sog'lom raqobatni himoya qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash, ularning sifatini nazorat qilish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish borasida bir qator huquqiy islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1997-yilning 30-avgustida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi 483-I-sonli Qonuni, 2025-yilning 3-fevralida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi 1023-sonli Qonuni, Prezident farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari ushbu sohadagi qonunchilik poydevorini mustahkamladi.

Global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi ham aholini xavfsiz, sifatli va yetarli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ularning ishlab chiqarilishi, importi va eksportini tartibga solish bo'yicha tizimli choralarni amalga oshirmoqda. Bu borada tarif va notarif choralar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari, geosiyosiy muammolar, logistika zanjirlarining uzilishi va pandemiyalar ta'sirida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin o'zgarishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan, davlatlar o'zining oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlashda nafaqat ichki ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki import mahsulotlariga nisbatan qat'iyroq tarif va notarif choralarni qo'llashga majbur bo'lmoqda.

Xususan, O'zbekiston ham import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifat va xavfsizlik talablariga mosligini ta'minlash maqsadida ularni bojxona chegarasida texnik, sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya tekshiruvlardan o'tkazmoqda. Bunda tarif choralar orqali bojxona to'lovlari qo'llanilsa, notarif choralar sifatida esa davlat ro'yxatidan o'tkazish, muvofiqlik sertifikatlari va ekspertizalardan o'tkazish tartiblari joriy qilingan. Ko'pincha oziq-ovqat xavfsizligi *notarif tartibga solish choralari* bilan tartibga solinadi. Chunki bunday chora-tadbirlar tovarlarning sifatini, xavfsizligini, iste'molchilarning salomatligini va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashga qaratilgan. Notarif tartibga solish choralari quyidagilar kiradi:

- I. Iqtisodiy choralar
 1. Himoya choralari (Alohida bojlar, Antidemping, Kompensatsiya, Maxsus)
 2. Bojxona tomonidan undiriladigan soliqlar (Aksiz, QQS, Boshqa soliqlar)
 3. Bojxona qiymati
 4. Valyuta nazorati



5. Moliyaviy choralar (Subsidiya, Kreditlash)
- II. Ma'muriy choralar
 1. Taqiqlash (Ochiq, Niqoblangan)
 2. Litsenziyalash
 3. Kvotalash
 4. Kontingentlash
 5. Eksport nazorati
- III. Texnik choralar:

Notarif tartibga solishning texnik choralarini

Ruxsat beruvchi tizim	Maxsus talablar	Qo'shimcha shart-sharoitlar
<ul style="list-style-type: none"> Davlat apparati nazorati Radioelektron vositalarni olib kirish, olib chiqish Madaniy boyliklarni olib kirish va olib chiqish CITES obyektlarini olib kirish va olib chiqish 	<ul style="list-style-type: none"> Sifat nazorati sertifikatlash Veterinariya nazorati Fitosanitariya nazorati Sanitariya epidemiologiya talablari 	<ul style="list-style-type: none"> Raqamli identifikatsiyalash vositalari orqali markirovkalash Bojxona ekspertizasi Intellektual mulk huquqi Boshqalar

Yuqorida keltirib o'tilgan texnik to'siqlarning bir turi hisoblangan maxsus talablar — ya'ni sifat nazorati sertifikatlash, veterinariya nazorati, fitosanitariya nazorati va sanitariya-epidemiologiya nazorati — oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashga bevosita ko'maklashadi. Ushbu mexanizmlar orqali davlat iste'molchilarning sog'lig'ini himoya qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish va sifat standartlariga javob bermaydigan mahsulotlarning ichki bozorga kirib kelishining oldini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Sifat nazorati sertifikatlash – mahsulotlarning milliy va xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlab, iste'molchiga ishonch beradi.

Veterinariya nazorati – hayvonlardan olingan oziq-ovqat mahsulotlarida xavfli mikroorganizmlar yoki kasallik alomatlarini yo'qligini kafolatlaydi.

Fitosanitariya nazorati – o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar tarkibida zararkunandalar, kasalliklar va pestitsid qoldiqlari mavjud emasligini ta'minlaydi.

Sanitariya-epidemiologiya nazorati – ishlab chiqarish, saqlash va tashish jarayonlarida sanitariya talablariga rioya etilganligini nazorat qiladi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishda ularning xavfsizligi va sifati ustidan samarali nazorat o'rnatish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-yanvardagi 43-sonli qarorida veterinariya va fitosanitariya nazoratiga oid ma'lumotlarni bojxona organlariga elektron shaklda taqdim etish tartibi belgilab berilgan. Ushbu hujjat orqali:



- oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi bilan bog'liq ma'lumotlar oldindan bojxona tizimiga yetkaziladi;
- nazorat organlari o'zaro tezkor axborot almashinuvi asosida samaraliroq hamkorlik qiladi;
- sanitariya va fitosanitariya talablariga javob bermaydigan mahsulotlarning mamlakat hududiga kirib kelish xavfi kamaytiriladi.

Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda notarif tartibga solish choralarining raqamli va institutsional jihatdan mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda tarif choralari ham muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Tarif chorasi — bu davlat tomonidan import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona to'lovlari, ya'ni **import bojlari** shaklida namoyon bo'ladi. Ularning asosiy maqsadi ichki bozorni haddan tashqari arzon, sifatsiz yoki sog'liq uchun xavf tug'diruvchi mahsulotlardan himoya qilish, hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardosh qilishdir.

Tarif choralarining oziq-ovqat xavfsizligidagi roli quyidagicha ifodalanadi:

Ichki bozorni muhofaza qilish. Tariflar yordamida davlat sifatsiz yoki shubhali kelib chiqishga ega oziq-ovqat mahsulotlarining importini iqtisodiy jihatdan cheklab, ichki ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qiladi. Masalan, past narxda import qilinadigan, lekin xavfsizlik standartlariga javob bermaydigan mahsulotlarga yuqori boj qo'llanilishi orqali ularning kirib kelishi qiyinlashtiriladi.

Iqtisodiy rag'batlantirish. Import bojlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada sifatli va xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishga undaydi. Chunki ular ichki bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun jahon standartlariga mos mahsulotlarni taklif qilishga majbur bo'ladilar.

Sog'liqni saqlashga bilvosita ta'siri. Sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarining tarqalishining oldini olish orqali tarif chorasi aholi salomatligini himoya qilishda bevosita bo'lmasada, bilvosita ijobiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, zararli kimyoviy moddalar yoki noto'g'ri texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar yuqori tarif bilan cheklanishi, ularning iste'molchilarga yetib borish ehtimolini kamaytiradi.

Davlat byudjetini to'ldirish. Tarif choralarining yana bir muhim jihati — bu bojxona tushumlari orqali davlat byudjetiga tushadigan daromadlardir. Ushbu mablag'lar oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha laboratoriyalar, tekshiruvlar va boshqa nazorat mexanizmlarini moliyalashtirishda ishlatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining bojxona tarif siyosati oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, ayrim turdagi go'sht, sut mahsulotlari yoki chorvachilikda ishlatiladigan yem-xashak importiga yuqori stavkali bojlar joriy etilgan. Bu chora bir tomondan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ustuvorligini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan mahsulotlarning importini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tarif va notarif choralar mamlakatning ichki bozorini himoya qilish, aholining salomatligini saqlash va xalqaro savdodagi ishtirokini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Maqolada ko'rib chiqilganidek, bojxona chegarasida mahsulotlar ustidan olib borilayotgan texnik, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya nazorati, shuningdek, muvofiqlik sertifikatlari, eksport-import tartibotlari kabi notarif choralar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, davlat tomonidan qo'llanilayotgan tarif choralari — xususan, bojxona bojlari, mavsumiy bojlar, aksizlar va QQS orqali ichki ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va tashqi raqobatdan muhofaza qilishga erishilmoqda. Bu esa milliy oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, mavjud tizimda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan:

- Ba'zi hollarda bojxona nazorati va sanitariya/fitosanitariya xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikda byurokratik to'siqlar uchraydi;



- Muvofiqlik sertifikatlari va boshqa hujjatlarning elektron almashinuvi yetarlicha avtomatlashtirilmagan;
- Import qilinayotgan mahsulotlar ustidan tekshiruvlar ba'zida ortiqcha cho'zilib, savdo jarayonlarining tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- Oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan texnik talablar ayrim hollarda xalqaro standartlardan orqada qolmoqda yoki ularga to'liq muvofiq emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **takliflarni** ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. **Tarif va notarif choralarni muvofiqlashtirish bo'yicha yagona raqamli platformani joriy etish** – bojxona, veterinariya, fitosanitariya va sanitariya xizmatlari o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashuvini ta'minlaydigan integratsiyalashgan elektron tizim yaratish.
2. **Xalqaro standartlarga mos texnik reglamentlarni ishlab chiqish va joriy etish** – Codex Alimentarius, ISO, FAO va WHO standartlari asosida milliy texnik talablar yangilanishi zarur.
3. **Bojxona ekspertizasining sifatini oshirish va zamonaviy laboratoriya bazasini kengaytirish** – ayniqsa, chekka hududlarda joylashgan bojxona postlarida mobil laboratoriyalarni joriy etish orqali tezkor va sifatli tahlillar o'tkazish.
4. **Tadbirkorlik subyektlariga soddalashtirilgan tartiblarni joriy etish** – xavfi past bo'lgan mahsulotlar uchun tezlashtirilgan bojxona yo'li va oldindan tasdiqlangan sertifikatlar orqali savdo jarayonlarini tezlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda tarif va notarif choralar davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lib, ular nafaqat iste'molchilar sog'lig'ini himoya qilish, balki milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Yuqoridagi takliflar amaliyotga joriy etilsa, O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy va samarali boshqaruv tizimiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi 483-I-sonli Qonuni
2. Bojxona ishi asoslari o'quv qo'llanmasi 1-qism Toshkent 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi lozim bo'lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida" 30.01.2021 yildagi 43-son qarori,
4. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida" 03.02.2025 yildagi O'RQ-1023-son Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 18.11.2019 yildagi 912-son qarori,